

INDEKS 1072



EZGU FIKR, EZGU SO'Z, EZGU AMAL!

ILM SARCHASHMALARI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETINING
ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNALI



2022-4

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

4.2022

**научно-теоретический методический журнал
Издаётся с 2001 года**

Urganch – 2022

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

TAHRIR HAY'ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
ABDULLAYEV Ikrom, biologiya fanlari doktori, professor (Xorazm Ma'mun akademiyasi),
ABDULLAYEV Ilyos, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),
ABDULLAYEV O'tkir, tarix fanlari doktori (UrDU),
ALEUOV Userbay, pedagogika fanlari doktori, professor (Nukus davlat Pedagogika instituti),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori (UrDU),
DO'SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),
IBRAGIMOV Zair, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, AQSH),
IMOMQULOV Sevdior, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),
JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, mas'ul kotib, UrDU),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OLLAMOV Yarash, yuridik fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xorazm viloyatidagi Xalq qabulxonasi bosh mutaxassisi),
OTAMURODOV Sa'dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
PRIMOV Azamat, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RO'ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O'zMU),
SAGDULLAYEV Anatoliy, tarix fanlari doktori, akademik (O'zMU),
SALAYEV San'atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SALAYEVA Muxabbat, pedagogika fanlari doktori (UrDU),
SATIPOV G'oiptnazar, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),
YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
O'ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori (UrDU),
O'ROZBOYEV G'ayrat, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
G'AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI•2022 4(178)**

MUASSIS: Urganch davlat universiteti•Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan•**GUVOHNOMA № 1131.**

ning yangi shahar ma'nosini anglatishini yoki *Ardaxiva* Xivaga nisbatan so'ngroq barpo qilinganini aniqlashimiz mumkin bo'ladi.¹

Demak, inson tafakkuridagi umumiylik, shu uridagi mushtarakliklarni izlash va belgilashda topnimlar alohida ahamiyatga molik birliklar sanaladi. Yuqorida bayon qilingan faktlar va mulohazalar bu masalani bir qadar yoritishga xizmat qiladi.

Tuychiyev Adxamjon Tuxtaboyevich (Namangan davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi; e-manzil: adham.tuychiev@gmail.com)

XORIJIY VA MAHALLIY ADABIYOTLARDA TANQIDIY FIKRLASH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada tanqidiy fikrlash masalalariga oid mahalliy va xorijiy olimlar adabiyotlari qiyosiy tahlili o'rganib chiqilgan. Tanqidiy fikrlash muammolari bo'yicha tadqiqotlarni keng tahlil qilish ushbu hodisaning tarbiyaviy, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'p qirrali voqelik ekanligi haqida fikrlar keltirilib o'tilgan. Shuningdek, tanqidiy fikrlash tushunchasi tahlil qilinib, sohaning mahalliy va xorijiy adabiyotlardagi tegishli tafvutlar va xulosalar muhokamasi keltirib o'tilgan.

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ литературы отечественных и зарубежных ученых по критическому мышлению. Обширный анализ исследований критического мышления показал, что это явление представляет собой многогранную реальность, имеющую образовательное, личное и социальное значение. В нем также анализируется концепция критического мышления и обсуждаются соответствующие различия и выводы в этой области из местной и зарубежной литературы.

Annotation. The article provides a comparative analysis of the literature of native and foreign scientists on critical thinking. Extensive analysis of critical thinking research has shown that this phenomenon is a multifaceted reality with educational, personal and social implications. It also analyzes the concept of critical thinking and discusses relevant differences and findings in this area from local and foreign literature.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, olimlar, tadqiqot, adabiyotlar.

Ключевые слова: критическое мышление, учёные, исследование, литература.

Key words: critical thinking, scientists, research, literature.

Ijtimoiy ong, aql-zakovat, borliqni idrok etish, ilm cho'qqisiga intilish hissi inson fikr tarbiyasining samarali usullarini takomillashtirishga undaydiki, bu, o'z navbatida, yosh avlodga tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning ta'sirchan mexanizmini topishga zamin yaratadi. Pedagogik, psixologik va sotsiologik adabiyotlar tahlili tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga doir turli qarashlar mavjudligini ko'rsatadi.

XXI asr ta'lim texnologiyalarining asosi sifatida tanqidiy fikrlashni o'rganish – pedagogika, psixologiya va qator ilmiy bilim sohalarining chorrahasida paydo bo'lgan eng ustuvor yo'nalishlardan biri deb atash mumkin. O'quv jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirish, rivojlantirish alohida ahamiyatga ega va u zamonaviy jamiyatning rivojlanishiga, qolaversa, insonning ichki dunyosiga e'tiborning ortishiga mos kelishi lozim.

M.V.Klarin AQSHda o'tgan asrning 80-yillaridan, Yevropa mamlakatlarida esa 90-yillardan boshlab tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ta'limning asosiy maqsadlaridan biriga aylanganligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlash muammosining dastlabki rivojlanish bosqichida ustuvorlik xorijiy olimlarga tegishli. Keling, endi ayrim xorijiy adabiyotlarda ushbu tushunchaning talqiniga murojaat qilamiz.

Umumiy psixologik nuqtai nazardan tanqidiy fikrlash muammosiga J.Piaje va V.Shtern to'xtalib, ular tanqidiy fikrlashni rivojlanishi bolaning tug'ilishi bilan bog'liq genezisi va uning egosentrizmdan asta-sekin ozod bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan savollarni ko'tarib chiqadi, ular tanqidiy fikrlash qobiliyatini aqliy qobiliyatning bilish jarayonida yuqori darajadagi tushunishni ta'minlovchi eng muhim tarkibiy qismi deb hisoblaganlar.

20-asr boshlarida D.Dyui fanga "tanqidiy ratsionalizm" tushunchasini kiritdi, bu bilan u shaxsiy faoliyat, imkoniyatlar, oqibatlarini anglash va ulardan xabardor bo'lishni nazarda tutgan. Psixolog tafakkur-

¹ Юлдашев Д. Жанубий Қорақалпоғистон топонимларининг тарихий-этимологик таҳлили. Филол. фанлари номзоди ... дисс..., Нукус, 2012, 80-бет.

ni tarbiyalash muammosi haqida fikr yuritar ekan, shunday deb yozadi: “Javob berilishi kerak bo‘lgan savol, yengib o‘tish lozim bo‘lgan qiyinchilik o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yadi, fikrlar oqimini ma’lum bir kurs bo‘ylab boshqaradi”.

Britaniyalik tadqiqotchi K.Popper tanqidiy va ratsional munosabatlarni tenglashtirib, shunday deb yozgan edi: “Insonni olim qiluvchi – bilimga egalik qilish emas, balki uning doimiy va dadil haqiqatga intilishi. Qanday yechim haqida o‘ylashimizdan qat’i nazar, biz bu qarorni darhol himoya qilish emas, balki eng jiddiy tarzda rad etishimiz kerak. Majoziy va mardonavor taxminlar hamisha diqqat bilan kuza-tib borilishi va sinab ko‘rilishi lozim”.

Psixolog olimlar R.Ennis va E.Norris tanqidiy fikrlash sohasida chuqur va shartli tadqiqotlar olib bordilar, ular buni oqilona fikrlash, fikrlash jarayonining o‘zini nazorat qilish va qonunlarga rioya qilish qobiliyati kabi ko‘nikma va qobiliyatlarning yig‘indisi sifatida izohladilar.

Amerikalik olimlar B.Mur va R.Parkerlar tanqidiy fikrlashni “har qanday hukmga nisbatan obdon o‘ylangan va ko‘rib chiqilgan vazmin qaror sifatida ta’riflaydilar: uni qabul qilishimiz, rad etishimiz yoki keyinga qoldirishimiz kerakligi va buni amalga oshirishimiz uchun uning ishonchlilik darajasi”.


Kaliforniya tanqidiy fikrlash tadqiqot markazi olimlari R.Pol va L.Elderlarga ko‘ra, tanqidiy fikrlash haqida o‘ylash – “bu fikrlashning kuchli va zaif tomonlarini anglay olish va natijada tafakkurga yangi shakl bera olish” qobiliyati.

“Tanqidiy fikrlash, deb yozadi K.Ueyd, – yaxshi isbotlangan sabablar asoslariga xolis baho berish qobiliyati va istagi. Boshqacha qilib aytganda, bu dalillarning yetishmasligini ko‘rish yoki aniq dalillarga ega bo‘lmaganlarga qarshi turish qobiliyati. Biroq, tanqidiy fikrlash faqat salbiy fikrlash emas. Bu yangilik va topilmalar uchun mumkin bo‘lgan tushunchalarni yaratish, qo‘shimchalar haqida o‘ylash, ijtimoiy va shaxsiy muammolarning keng doirasiga yangi bilimlarni qo‘shish orqali ijodiy va konstruktiv bo‘lish qobiliyatini mustahkamlaydi. Inson, haqiqatda, ijodiy tafakkurni tanqidiy tafakkurdan ajrata olmaydi, uning farqini faqat tasavvur qilgan paytdagina his qiladi”.

D.Xalpern o‘zining “Tanqidiy fikrlash psixologiyasi” asarida tanqidiy fikrlashga quyidagicha ta’rif beradi: “...Istalgan natijani olish ehtimolini oshiradigan bunday kognitiv qobiliyat va strategiyalardan foydalanish. Uning fikricha, tanqidiy fikrlash manbayi qarama-qarshilik va muammo bo‘lib, fikrlash va his-tuyg‘ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni hisobga oladi. Har qanday muammoni hal qilish qadriyatlar va his-tuyg‘ularning namoyon bo‘lishi va o‘z moyilligini namoyish qilish bilan bog‘liq.

Tanqidiy fikrlashni o‘rgatish bo‘yicha Amerika Milliy kengashi tanqidiy fikrlashning intellektual qobiliyatlari universal bo‘lgan muayyan standartlarga javob berishi kerak, deb hisoblaydi. Bularga aniqlik, shaffoflik, asoslilik, dolzarblik, xolislik, haqqoniylik, izchillik kiradi. Tanqidiy fikrlash mexanizmi fikr va mulohaza yuritish jarayonini belgilovchi aqliy operatsiyalarni o‘z ichiga oladi: maqsadni belgilash, muammoni aniqlash, farazlarni ilgari surish, dalillar keltirish va asoslash, oqibatlarini bashorat qilish, mos nuqtayi nazarlarni qabul qilish yoki rad etish.

Xorijiy olimlarning adabiyotlarida “tanqidiy fikrlash” atamasiga berilgan ta’rifning mohiyatini 1-rasmda sxematik tarzda keltirib o‘tamiz.



1-rasm. Xorijiy adabiyotlarda “tanqidiy fikrlash”ga berilgan ta’rif.

Endi MDH va mahalliy adabiyotlarda ushbu tushunchaning talqinini ko‘rib chiqamiz. Tanqidiy fikrlash konsepsiyasi (E.A.Xodos va A.B.Butenko) metakognitiv qobiliyatlar majmuasi sifatida qaraladi: mantiqiy xatolarni qidirish, bilim asoslarini o‘rganish va uni qo‘llash – yashirin taxminlar va noto‘g‘ri qarashlarni, stereotiplarni aniqlash va shakllantirish, ularning tahlili va asosiligi; dilemmalarni, muammolarni hal qilishning muqobil usullarini shakllantirish; hukmlarning to‘g‘riligi, ishonchligini baholash.

L.S.Vigotskiy, Y.A.Samarin, B.M.Teplovlar tanqidiy fikrlash inson tajribasini umumlashtirish bo‘lib, aqliy jarayonlar oqimiga ta‘sir etishini ta‘kidlaydilar. A.I.Lipkinaning tadqiqotlarida aql xususiyatlari aqliy faoliyatning shaxsiy parametrlari sifatida ko‘rib chiqilgan va amalga oshirilgan.

I.I.Kojuxovskaya tanqidiy fikrlashni “inson shaxsiy fazilatlarining cho‘qqisi”, deb ta‘riflaydi. Muallifning ta‘kidlashicha, o‘z harakatlari ustidan doimiy nazoratning yo‘qligi va yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatish tanqidiy fikrlashning buzilishi, ya‘ni xatti-harakatlarning buzilishini anglatadi. Tanqidiylik – xatti-harakatni tartibga solish va faoliyat vositachiligini ta‘minlaydigan va shaxsning ijtimoiy moslashuv darajasini amalda aniqlaydigan eng muhim shaxsiy fazilatlaridan biri.

S.I.Zair-Bek va I.V.Mushtavinskayalarga ko‘ra, tanqidiy fikrlash inson tafakkurining tayanch nuqtasi, g‘oyalar va ma‘lumotlar o‘zaro bir-biri bilan ta‘sir qilishning tabiiy usulidir. Odatda, biz va talabalarimiz axborot tanlash muammosiga duch kelamiz. Mavjud malaka esa uni o‘zlashtirish uchungina emas, balki tanqidiy baholash, tushunish va qo‘llash uchun ham muhimdir. Talabalar yangi ma‘lumotlarni olayotganda uni turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqishni, ularning to‘g‘riligi va ahamiyati haqida xulosa chiqarishni o‘rganishlari kerak.

Yuqorida aytilgan fikr va mulohazalar bizga tanqidiylikni uning aqliy faoliyatda namoyon bolish orqali shaxsning alohida xususiyati sifatida o‘rganishga imkon beradi.


“Tanqidiy fikrlash – yangi, tushunib bo‘lingan g‘oyalar tekshiralayotganda, baholalanayotganda, rivojlantirilayotganda va qo‘llanilayotganda sodir bo‘ladi, deb ta‘kidlaydi o‘zbek olimi S.S.G‘ulomov.

Faylasuf olim Z.G‘ofurovning fikricha, tanqidiy fikrlash deganda mantiqiy fikrlash va isbotlash ko‘nikmalari tushuniladi, uning yordamida talabalar diqqat bilan o‘qish, chuqur munozaralar yuritish va yozuvda o‘z fikrlarini aniq va o‘ylab ifoda etish imkonini oladilar.

Professor O‘.M.Asqarovanning fikricha, tanqidiy fikrlash ba‘zi hollarda “yo‘naltirilgan fikrlash” deb ham ataladi, chunki u kutilgan natijani olishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Biz hech qanday aniq maqsad qo‘ymay shug‘ullanadigan orzular, tushlar va fikrlash faoliyatining boshqa ko‘rinishlari tanqidiy fikrlash toifalariga mansub emas.

F.O.Xodjiyevaga ko‘ra, tanqidiy fikrlash bilimni o‘zlashtirish va mustaqil fikrlashning yuqori darajadagi tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsning voqea, hodisa, borliqni ob‘yektiv idrok etish imkoniyatini kengaytiruvchi aqliy hodisadir. Tanqidiy fikrlashda g‘oyalar va ularning ahamiyati ko‘pfikrlilik nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi hamda ular boshqa g‘oyalar bilan taqqoslanadi. Unda tahlil, taqqoslash, izohlash, yangilik kiritish, muammolarni hal qilishga alohida e‘tibor beriladi hamda ta‘lim oluvchilarda bunyodkor g‘oyalarning yovuz g‘oyalar ustidan g‘alaba qozonishiga ishonch paydo qilinadi.

MDH va mahalliy olimlar adabiyotlarida “tanqidiy fikrlash”ga berilgan ta‘rifning mohiyatini 2-rasmda sxematik tarzda quyidagicha taqdim etamiz.



2-rasm. Mahalliy adabiyotlarda “tanqidiy fikrlash”ga berilgan ta‘rif.

Tanqidiy fikrlash tushunchalarini tahlil qilib, ma'lum farqlar mavjud degan xulosaga keldik. Chet el tadqiqotining o'ziga xos xususiyati tanqidiy fikrlash hodisasini o'rganishga empirik yondashuvning ustunligidir. Tanqidiylikning shaxs tuzilishidagi o'rni va roli haqidagi savolga nazariy yechim zarurati ko'p-lab MDH va mahalliy mualliflar tomonidan ta'kidlangan.

Tanqidiy fikrlash muammosi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar tahlili ushbu hodisaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyati hamda uni ta'limda rivojlanishining ustuvorligi haqida xulosa chiqarishga asos beradi. Chet el tadqiqotining o'ziga xos xususiyati tanqidiy fikrlash fenomenini o'rganishga empirik yondashuvning ustunligidir.

Bizning fikrimizcha, tanqidiy fikrlash mazmuni masalasi eng munozarali masala hisoblanadi, chunki har bir muallif "tanqidiy fikrlash" tushunchasini o'z tushunchasi bilan to'ldiradi, bu masala, albatta, qaysi fan pozitsiyasidan qanday o'rganilayotganiga bog'liq.

Biz mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlarida tanqidiy fikrlash muammosiga yondashuvlarni moslashtirish va sintez qilish asosida tanqidiy fikrlash haqidagi tushunchamizni aniqladik. Tanqidiy fikrlash, bizningcha, nafaqat tarbiyaviy, balki shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'p qirrali hodisa sifatida qaraladi; maqsadli fikrlashni ifodalovchi, uning maqsadini isbotlash, tushuntirish va muammoni hal qilish yo'llarini topish bo'lib, bu shaxsning fazilatlarida namoyon bo'ladi va sharhlash, tahlil qilish, baholash, xulosa qilish, tushuntirish va o'z-o'zini tartibga solish qobiliyatini nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedova L.T. Talabalarni kasbga tayyorlashda pedagogik texnologiyalarning roli va o'rni. T., 2009.
2. Tuychiyev A.T. Ingliz tilini o'qitishda tanqidiy fikrlashning ahamiyati. Jurnal "Herald Pedagogiki". Varshava, Polsha, Mart, 2021.
3. Xodjiyeva F.O. O'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish va uning muhim jihatlari. "Zamonaviy ta'lim, Toshkent, 6, 2017.
4. Выготский Л.С. Мышление и речь (текст). М., "Просвещение", 1996, с. 253.
5. Заир-Бек С.И. Развитие критического мышления на уроке. Пособие для учителя, М., "Просвещение", 2004.
6. Смирнов В.И. Общая педагогика (текст). М., "Логос", 2002, с. 302.
7. Теплов Б.М. Избранные труды. В 2 т., т. 2, М., "Педагогика", 1985, с. 326.
8. Ходос Е.А., Бутенко А.В. Критическое мышление: метод, теория, практика. М., "Мирос", 2002, с. 176.
9. Dewey J. Psychology and pedagogy of thinking (How we think). Publishers, Boston, 1910.
10. Ennis R. Evaluating Critical Thinking. New York, Pacific Grove, CA, Widwest, 1989, p. 283.
11. Halpern D.F. Thought and knowledge: an introduction to critical thinking. 5th Edition. New York, Psychology Press, 2014.
12. Paul R.W. Critical Thinking. Foundation for Critical Thinking. Santa Rosa SA, 1993, p. 4.
13. Piaget J. The nature of intelligence. From the book of J. Piaget. Selected psychological works. International Pedagogical Academy, 1994.

**Якубова Матлуба (Урганч Давлат университети мустақил тадқиқотчиси;
matluba.yakubova13@mail.ru)**

ЭРКИН САМАНДАР ШЕЪРИЯТИДА АРХАИК ҚАТЛАМ

Аннотация. Ушбу мақолада шоир Эркин Самандар шеъриятида архаизмлар ишлатилиши ҳақида гап боради. Шоирнинг шеърларидаги мисраларда қўлланилган архаизмлар бир-биридан маъно даражаси билан фарқланиши натижасида бадиий нутқ ихчам ва ўқимишли тарзда намоён бўлиши ҳақида маълумотлар келтирилган.

Аннотация. В данной статье рассматривается употребление архаизмов в поэзии поэта Эркина Самандара. Архаизмы, используемые в стихотворениях поэта, отличаются друг от друга по степени осмысленности, в результате чего художественная речь выражается лаконично и образно.

Annotation. This article discusses the use of archaisms in the poetry of the poet Erkin Samandar. The archaisms used in the verses of the poet's poems differ from each other in the degree of meaning, as a result of which the artistic speech is expressed in a concise and educated way.

Nurmamatov Zuxriddin Shavkat o'g'li. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi.....	101
Шопулатов Абдималик Нуруллаевич. Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида илмий тадқиқот натижаларини амалиётга татбиқ этиш механизмларини такомиллаштириш.....	103
Qarshieva Dilbar Eshpo'latovna. Zamonaviy pedagogikada amaliyotni tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslari.....	107
Kamolov Iftixor Baxtiyorovich, Qurbonova Mohigul Shoniyozovna. Bolalarda musiqani badiiy his etishlarini rivojlantirishda o'yin folklor janridan foydalanishning ahamiyati.....	110
Asilbekov Nurjon Baxtiyarovich. Talaba-yoshlarni ta'lim-tarbiya jarayonida kasbiy va o'zini-o'zi tarbiyalash omillari.....	113
Otamuratova Saodat Shonazarovna, Eshchanov Erkabay Uskinovich, Masharipov Azamat Tursinboyevich. Organik kimyo kursining "to'yingan bir atomli spirtlar" mavzusini o'qitishda rolli o'yinlardan foydalanish.....	116
Ibraximov Sanjar Urunbayevich. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagog-murabbiylarni tayyorlashning dolzarb yo'nalishlari.....	121
Ziyatov Muhammad Namazovich. Maktabgacha yoshdagi bolalarda egiluvchanlik sifatini rivojlantirishda statik-streching mashqlardan foydalanish texnologiyalari.....	124
Turdieva Mohira Jo'raqulovna. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari "Til va nutq" markazida tarbiyalanuvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.....	127
Тураев Ёлқин Шерзод ўғли. Maktabgacha katta ёшдаги болаларни табиат билан таништириш метод ва воситалари.....	130
Allaberganova Muyassar Rimberganovna, Hamrayeva Saida Ismailovna, Ravshanqulov Abbos Ravshanqul o'g'li, Olloberganova Muyassar Davlatboy qizi. Ta'lim jarayonida google xizmatlaridan foydalanish.....	133
Mattiev Ilhom Begmatdulobovich. "Health Care" tafakkurini shakllantirishda o'qituvchi kompetensiyasi va uning ahamiyati.....	137
Абдуганиева Джамиля Рустамовна. Методика обучения последовательному переводу студентов языковых ВУЗов.....	139

ILMIY AXBOROT

Отамуродова Дилафруз. Француз тилида диалоглар мулоқот шакли сифатида қўлланишининг айрим хусусиятлари.....	151
Fayzullayeva Muhayyo Raxmatillayevna. Diniy markerlangan alluziyalarning badiiy matnda konsept sifatida gavalanishi.....	153
Allayorov To'liqin Ro'ziqulovich. Nasriy asarlarda qo'llanilgan so'roq birliklarining lingvopoetik xususiyatlari.....	156
Hakimboy Matyoqubov. O'zbek va ingliz tillarida eski va yangi tushunchalari zidligi asosidagi toponimlar.....	159
Tuychiyev Adxamjon Tuxtaboyevich. Xorijiy va mahalliy adabiyotlarda tanqidiy fikrlash masalalari.....	162
Якубова Матлуба. Эркин Самандар шеърларида архаик қатлам.....	165
Nuritdinova Shoira Xamidovna. Nemis va o'zbek tillarida qo'shma otlar yasallishining o'ziga xos xususiyatlari.....	169
Xalilova Shaxlo Jalilovna. O'zbek va ingliz xalq ertaklarining umumiy o'xshashliklari.....	171
Гафуров Бахтиёр Закирович. Текст рекламы гигиенических средств и его лексико-тематические группы.....	174
Уринова Шахло Абдихалимовна. Место интернационализмов среди заимствованной лексики.....	178
Тоҳтиева Регина Шамильевна. Концепт "женщина" в русских и узбекских пословицах.....	181
Абдувахובה Умида. Прагматические аспекты перевода художественного текста.....	183
Агзамходжаева Шахноза Саидматлабовна. Алишер Навои и предпринимательство.....	186
Ахмедова Нилуфар Мамасидиковна. Диагностический инструментальный оценки уровня сформированности алгоритмической компетентности в процессе дифференциального обучения у будущих педагогов начальных классов.....	189
Polvanova Makhzuna Farxadovna. Semantic Analysis of Phraseological Units Containing Currency in their Components in English and Russian Languages.....	192
Акрамова Тахмина. Romantic Writers' Groundbreaking in the Short Story Genre.....	195